



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK
XO‘JALIGI
2024-YIL YANVAR-MART OYLARI
(dastlabki ma‘lumot)**






2024-yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 3 705,3 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar - 3 578,8 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 45,5 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 81,0 mlrd soʻmni tashkil qildi.

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar





Xorazm viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʻati

01



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – **103,2%**

02



Oʻrmon xoʻjaligi – **102,2%**

03



Baliqchilik xoʻjaligi – **122,1%**

2024-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 103,2 %ni, oʻrmon xoʻjaligi – 102,2 %ni, baliqchilik xoʻjaligi – 122,1 %ni tashkil qildi.



Ma'lumot uchun:


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2023-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi:

✓ Meva	—	466,7 %
✓ Ovlangan baliq	—	126,8 %
✓ Jun	—	125,6 %
✓ Sabzavot	—	118,4 %
✓ Qorako'l teri	—	103,8 %
✓ Poliz Asal	—	102,6 %




Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, %da

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar




2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 96,6 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlari (2023-yilning yanvar-mart oylarida 96,8 %), 1,2 %i – o'rmon xo'jaligi (1,3 %), 2,2 %i – baliqchilik xo'jaligi (1,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.



Hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd soʻm

2024-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Qoʻshkoʻpir (422,4 mlrd soʻm), Urganch (410,1 mlrd soʻm) va Xonqa (375,5 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahrini (17,0 mlrd soʻm), Tuproqqalʼa tumanini (88,4 mlrd soʻm) hamda Urganch shahrini (139,5 mlrd soʻm) keltirib oʻtish mumkin.




Ma'lumot uchun:

2024-yilning yanvar-mart oylarida Qo'shko'pir, Urganch va Xonqa tumanlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinlarni egallashi, mazkur hududlarning go'sht, sut, tuxum, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

Aksincha, go'sht, sut, tuxum, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Xiva, Urganch shaharlari va Tuproqqal'a tumani kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, %da






Viloyatda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulishga ega hududlar



Hududlar boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining oʻsish surʼati, %da



Yuqori oʻsish surʼatlari Bogʻot (107,4%), Xonqa (107,4%) va Yangibozor (107,2%), tumanlarida qayd etildi.



Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

	<i>Hajmi mlrd soʻm</i>	<i>Oʻsish surʻati, %da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, %da</i>
Xorazm viloyati	3 705,3	103,6	98,4
Urganch sh	139,5	102,5	99,2
Xiva sh	17,0	100,3	99,6
Bogʻot	334,4	107,4	98,8
Gurlan	366,2	101,9	99,6
Qoʻshkoʻpir	422,4	101,0	97,8
Urganch	410,1	103,4	99,5
Hazorasp	305,0	102,8	99,8
Tuproqqalʼa	88,4	105,3	99,4
Xonqa	375,5	107,4	99,1
Xiva	371,0	103,3	99,7
Shovot	335,0	102,5	98,6
Yangiariq	315,8	101,0	90,2
Yangibozor	225,0	107,2	99,5

Viloyatning qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 98,4 % ni tashkil etdi. Ushbu koʻrsatkichni hududlar boʻyicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga ega boʻlgan Hazorasp tumani (99,8 %) va boshqa koʻpgina hududlarni (99,7 %-98,6 %) keltirishimiz mumkin. Bu koʻrsatkich Yangiariq tumanida 90,2 % va Qoʻshkoʻpir tumanida 97,8 % ni tashkil etdi.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari — hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 527,9 mlrd so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,2 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 170,9 mlrd so'mni (111,5 %), chorvachilik mahsulotlari 3 357,0 mlrd so'mni (102,8 %) tashkil qildi.





Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Dehqonchilik mahsulotlari




Chorvachilik mahsulotlari





QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI



Xorazm viloyati
2024-yil yanvar-mart




3527,9
mlrd so'm

O'sish sur'ati

103,2 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligining umumiy
hajmdagi ulushi, % da




Viloyatda jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Urganch (11,3 %), Qo'shko'pir (11,2 %), Xonqa (10,3 %) va Gurlan (10,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor (107,1 %), Xonqa (106,9 %), Bog'ot (106,8 %) va Tuproqqal'a (105,1 %) tumanlarida qayd etildi.



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, %da




Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar	Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar
--	--

- 01 ► Bog'ot
- 02 ► Yangiariq
- 03 ► Tuproqqal'a

- Urganch sh ◀ 01
- Xiva sh ◀ 02
- Qo'shko'pir ◀ 03



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %da



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 88,0 %i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,9 %i – fermer xo'jaliklariga, 6,1 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Ma'lumot uchun:

Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- | | |
|-------------------------|----------|
| ✓ Sog'ib olingan sut | — 93,3 % |
| ✓ Qoraqo'l teri | — 92,7 % |
| ✓ Go'sht (tirik vaznda) | — 88,3 % |
| ✓ Tuxum | — 70,1 % |
| ✓ Qirqib olingan jun | — 63,3 % |



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, %da



2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumanida (14,4 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo'shko'pir tumanida (23,9 %) qayd etildi.




Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Yangiariq tumanida (3,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qo'shko'pir tumanida (70,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,1 %) kuzatildi.




Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi

Dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik mahsulotlari



Fermer xo'jaliklari


Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Dehqonchilik mahsulotlari

Viloyatda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Bog'ot (13,7 %), Yangiariq (10,2 %), Tuproqqal'a (7,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining umumiy hajmdagi ulushi, % da



Ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Xonqa (157,2 %), Tuproqqal'a (144,3%) va Bog'ot (138,1%) tumanlarida qayd etilgani kuzatiladi.




Sabzavotlar



Xo'jalik toifalari orasida sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 4413 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 80,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2023-yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 21,3%, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 4,8% o'sish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 21,5 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish




Hududlar o'rtasida sabzavot yetishtirish tarkibining asosiy qismini Bog'ot va Yangiariq tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 38,5 % va 25,8 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Xonqa (11,1 %) va Urganch (9,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Xiva shahri (0,3 %) va Qo'shko'pir tumanida (0,6 %) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Xonqa (273,8 %) va Tuproqqal'a (210,0 %) tumanlarida qayd etildi.




Meva va rezavorlar



Xo'jalik toifalari orasida meva va rezavorlar yetishtirishning eng katta hajmi 14 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 100,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2023-yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 0,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,0 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 3,7 marta o'sish qayd etildi.


Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish



Hududlar o'rtasida meva va rezavorlar yetishtirish tarkibining asosiy qismini Urganch va Tuproqqal'a tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 52,1 % va 27,1 %ga teng bo'ldi.



Chorvachilik mahsulotlari



Xorazm viloyati
2024-yil yanvar-mart

3357,0

mlrd so'm

O'sish surati

102,8 %



Qishloq xo'jaligining umumiy hajmdagi ulushi, % da



Viloyatda jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Qo'shko'pir (11,5 %), Urganch (11,4 %), Gurlan (10,2 %) va Xonqa (10,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'ati Yangibozor (107,2 %) tumanida qayd etildi.



2024-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari


	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna ,</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Go'sht (tirik vaznda)	43676	102,7	1139	124,1	38571	102,3	3966	101,6
Sut	215495	101,9	12738	126,7	201132	100,6	1625	116,4
Tuxum mln, dona	98,2	101,8	10,0	102,8	68,8	100,9	19,4	104,8
Baliq	3386,5	126,8	2133,3	121,6	193,0	101,6	1060,2	146,2

2024-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 2,6 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,1 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sut yetishtirishning 5,9 %i fermer xo'jaliklariga, 93,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, olingan tuxumning 10,2 %i fermer xo'jaliklariga, 70,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 19,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Ovlangan baliqning 63,0 %i fermer xo'jaliklariga, 5,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 31,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.




Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 43,7 ming t. go'sht (2023–yilning yanvar–martga nisbatan 2,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna






Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 215,5 ming t. sut (2023–yilning yanvar–martiga nisbatan 1,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,3%i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Hududlar bo'yicha sut yetishtirish, tonna






Tuxum


Hajmi, mln dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 98,2 mln dona tuxum (2023–yilning yanvar–martiga nisbatan 1,8 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish, ming dona






Baliq


Hajmi,tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3386,5 tonna (2023–yilning yanvar–martiga nisbatan 26,8 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 63,0 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar, tonna





2024-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni


	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Yirik shoxli qoramollar	967,3	100,9	74,5	103,8	878,1	100,5	14,7	113,0
<i>shundan, sigirlar</i>	367,3	100,7	31,3	106,8	330,3	99,9	5,7	118,2
Qo'y va echkilar	501,5	102,4	83,0	108,9	386,6	100,3	31,9	114,6
Otlar	5,8	100,5	0,8	105,2	5,0	99,5	0,1	123,2
Parrandalar	6890,6	105,2	1085,7	113,1	3931,9	99,7	1873,0	113,8

2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,7 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 16,6 %i fermer xo'jaliklariga, 77,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, otlarning umumiy sonidan 13,7 %i fermer xo'jaliklariga, 85,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Parrandalar umumiy sonidan 15,8 %i fermer xo'jaliklariga, 57,0 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.




Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 967,3 mingtaga yetdi. 2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 8,4 mingtaga (0,9 %) ko'paydi.

2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 90,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollar bosh sonlari, ming bosh






Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 367,3 mingtaga yetdi. 2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 2,4 mingtaga (0,7 %) ko'paydi.

2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 89,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




Sigirlar, ming bosh






Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 501,5 mingtaga yetdi. 2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 11,8 mingtaga (2,4 %) ko'paydi.

2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 77,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




Qo'y va echkilar, ming bosh






Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 5 822 taga yetdi. 2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 28 boshga (0,5 %) ko'paydi.

2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 85,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.




Otlar, bosh






Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 890,6 mingtaga yetdi. 2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 342,3 mingtaga (5,2%) ko'paydi.

2024–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 57,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Parrandalar, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 62-224-64-96